

mintqasining alohida-alohida sho'r tuproqli mintaqalarida uchraydi. Bunday yaylov tipining o'simlik qoplami juda siyrak bo'lib, Qoraxotun, Mingbuloq, Oyoqog'itma, To'rtko'l botiqlari atrofida uchraydi. Sho'ra o'tli yaylovlarda asosan galofit o'simliklar o'sib rivojlanishi mumkin, ularning hosildorligi tuproqning sho'rlanish darajasiga bog'liq bo'lib, 0,5-5 tsentnerni tashkil etadi. Bunday yaylov tipining hosildorligi kam bo'lgani uchun, qo'y-qo'zilar bunday yaylovlarda o'tlashi uchun uzoq masofani bosib o'tishlariga to'g'ri keladi.

Xulosa shuki, barcha yaylov tiplarida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan o'simlik turlari o'sib rivojlanadi, masalan, efemer va efemeroidli yaylov tipida qorako'l qo'ylari uchun protein, karbonsuvlar, vitaminlarga boy, to'yimli bir va ko'p yillik o'tchil o'simliklar o'sadi. Ularning hayot davomiyligi qisqa bo'lganligi bois, tezda qurib qoladi va xas holida iste'mol qilinadi. Buta-

barra o'tli yaylov tipida bahorgi barra o'tlardan tashqari hayot faoliyati uzoq davom etadigan buta va yarim buta o'simliklar o'sib rivojlanadi. Shu sababdan, bunday yaylov tipidan bahor, yoz va kuz fasllarida ham samarali foydalanish mumkin. Shuvoq-barra o'tli yaylovlarda bahorgi ko'kat o'simliklar bilan birgalikda yarim butalardan asosan shuvoq o'sadi hamda bunday yaylov tipidan yil davomida foydalanish mumkin. Sho'ra o'tli yaylov tipida asosan uzoq o'sish davriga ega bo'lgan, tarkibida ko'p miqdorda mineral tuz saqlaydigan sho'rga chidamli galofit o'simliklar o'sib rivojlanadi, xo'jalikda foydalanish jihatiga ko'ra, bunday yaylov tipidan asosan kuz faslida qo'ylarni qochirish mavsumida foydalaniladi. Demak, turli yaylov tipidan turli mavsumlarda foydalanish imkoniyati mavjud bo'lib, yaylov tiplari bir-biridan floristik tarkibi, turlar dominantligi va fitotsenoz tarkibi bilan bir-biridan farq qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagi PQ 4204-sonli "O'zbekiston Respublikasida cho'llashish va qurg'oqchilikka qarshi-kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
2. Farmonov E.T., Pulatov A.T. Cho'l va yarim-cho'l hududlarida saksovlur urug'ini ekishni mexanizatsiyalash orqali yashil qalqon maydonlar barpo etish bilan qum bo'ronlariga qarshi-kurashish. // Agroinform №4 [10] 2023. B 12-16.
3. Мукимов Т и другие. Улучшение деградированных пастбищ аридной зоны и уменьшение нагрузки на пастбища. // Продовольственная безопасность: национальные и глобальные факторы. Сборник материалов научно-практической международной конференции. Самарканд, 2019. С 147-148.
4. Раббимов А., Бобокулов А. Қорақўл ва Зомин туманларининг чўл ва ярим-чўл яйловларини яхшилашга оид тавсиялар. Тошкент, 2017. 24 б.

ANJIR YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA NAVLARI

Sitora Abdullayeva, doktorant,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti agrobotexnologiyalari va oziq- havfsizligi instituti

Annotatsiya. Respublikamiz iqlim sharoitida anjir yetishtirish texnologiyasi va shifobaxshlik xususiyatlari hamda mahalliy sharoitda ekishga tavsiya etilgan navlari Yangi anjirzorlar barpo etish, ko'chatlar ekish va parvarishlash bo'yicha agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida, sifatli bajarilishiga oid vazifalar ushbu qo'llanmada bayon etilgan.

Kalit so'zlar: anjir, Dalmatskiy, Krimskiy-29, Uzbekskiy jyloty, Krimskiy-43, Krimskiy-9, Beliy Adriaticheskij, Kadota navlari, sug'orish, o'g'itlash, hosildorlik.

Аннотация. Технология и лечебные свойства выращивания инжира в климатических условиях нашей республики, а также сорта, рекомендуемые к посадке в местных условиях.

Ключевые слова: инжир, сорта Далматский, Крымский-29, Узбекский желтый, Крымский-43, Крымский-9, Белый Адриатический, Кадота, орошение, внесение удобрений, продуктивность.

Abstract. The technology and medicinal properties of fig cultivation in the climatic conditions of our republic, as well as the varieties recommended for planting in local conditions.

Key words: Fig, Dalmatsky, Krymsky-29, Uzbeksky jyloty, Krymsky-43, Krymsky-9, Beliy Adriaticheskij, Kadota varieties, irrigation, fertilization, productivity.

Kirish. O'zbekistonning janubiy qismi subtropik ekinlar yetishtirish uchun qulay xudud hisoblanadi. Respublikada qishloq xo'jaligining barcha sohalarini, shu jumladan, bog'dorchilikni jadal rivojlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, subtropik mevali ekinlar hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ularni quruq va xo'l holda yetishtirish, aholining subtropik mevali mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirishiga qaratilishi zarur. Anjirda 50-77% gacha qand, 1161mg/% kaliy tuzlari, 227 mg/% kalsiy tuzlari, 117 mg/% magniy, 263 mg/% fosfor, 46 mg/% temir va 100 mg/% shavel kislotasi mavjud. Bundan tashqari, anjir mevalarida fibrinolizin xususiyatiga ega bo'lgan fisin o'simlik fermenti, shuningdek amilaza, proteaza va enzim topilgan. O'zbekistonda tuproq-iqlim sharoitlarining ulardan yuqori va sifatli hosil olish imkoniyatini beradi [1,3].

Iqlim sharoitlarining keskin o'zgaruvchanligi sharoitida anjirdan ko'p va sifatli hosil yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish, mavjud resurslar, mineral va mahalliy o'g'itlar hamda sug'orish rejimini buzmasdan, yetishtirish texnologiyasidan to'g'ri va unumli foydalanishda bog'bon va fermerlarga tavsiyalar beriladi.

Anjir qand moddalari (kokisida 78% gacha qand bo'ladi), turli vitaminlar (V1, V2, S, Ye, RR vitaminlar) bilan karotinga, organik kislotalar (oksalat, limon, olma, sirka kislotalar)ga, mineral tuzlarga boy. Bu o'simlikning hamma qismlarida furokumarinlar -psoralen va berganten, glikozidlar bo'ladi. Urug'larida 29,4% moy bor. Yangi pishgan mevasi iste'mol qilinsa ichni yumshatadi, badandagi ichki shishlar va quyuqlashgan moddalarni bartaraf etadi, me'da va ichaklarni zararli moddalardan tozalaydi.

Anjir asosan oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinsada, qadim zamonlardan buyon xalq tabobatida jigar, taloq va o'pka shamollashida dori sifatida qo'llanilgan. Uning mevasi va kokisidan tayyorlangan damlama yo'talga, balg'am ko'chirishga, sharbatiga asal aralashtirilgani kuz xastaliklarida shifobaxsh hisoblanadi. Agar qirg kungacha naxorda yeyilsa, badanni semirtiradi, yurak o'ynashi, nafas siqilishi, havo yetishmaslik, yo'tal illatlari, ko'krak osti a'zolari va o'pka kasalliklariga davo bo'ladi. Anjirni bodom va pista mag'zi bilan iste'mol qilinsa, tanasi zaif odamlarga yaxshi foyda beradi. Tanadagi toliqishlarni bartaraf etadi, aqlni mustahkamlaydi, miyani baquvvat qiladi [1,2,3].

Anjir tuplari sovuqqa chidamsiz bo'lganligi sababli respublika tuproq-iqlim sharoitida qishda ko'milib, bahorda ochiladi. Anjir namga ancha talabchan va namsevar o'simlik bo'lib, yengil va serunum tuproqda yaxshi o'sadi. Sho'rlangan yoki shagalli tuproqlarda deyarli o'smaydi. Ekilgandan so'ng anjir tuplariga ikkinchi yildan boshlab shakl berib boshlanadi. Anjirga 2-3 ta asosiy hosil qiluvchi rivojlangan novdalar qoldirilib, butasimon shakl beriladi. Bir tanali qilib o'stirilganda siyraklashgan yarusli qilib shakl bersa ham bo'ladi, bunda tagidan chiqqan bachki novdalar va ortiqcha shoxlar olib tashlanadi. Qishlash oldidan butun tana qismini tuproq bilan ko'mishni osonlashtirish uchun qator bo'ylab bir tomonga egiltiriladi [1,3].

Anjir issiq va namsevar o'simlik. Ekilgandan keyin birinchi yilda 12-17 marta gektariga 450-500 m³/ga miqdorida aprel, may, sentyabr oyida 2-3 marta, oktyabr oyida 1 marta sug'oriladi. Ko'chatlar sonining to'liq bo'lishi va o'sishini ta'minlash uchun sug'oriladigan egatlar yosh ko'chatlarga yaqinrok olinib, egatlarga kam miqdorda suv ko'yiladi va tuproq qaytadan chopiq qilinib, keyin sug'orish uchun egatlar olinadi. Bog'lar ikkinchi va uchinchi yillarda 10-12 marta sug'oriladi, oylar bo'yicha taqsimlansa, mart, aprelda 1 martadan, may, iyun, iyul, avgustda 2 martadan, sentyabr va oktyabrda 1 martadan. Sug'orish me'yori gektariga 600-700 m³/ga ni tashkil etadi, hosilga kirgan bog'larda sug'orishlar soni kamayadi va me'yori kupaytiriladi, yil davomida 8-10 marta sug'oriladi, sug'orish me'yori 800-900 m³/ga [1,2,3].

Anjir bog'larini o'g'itlashda fosforli va kaliyli o'g'itlarning kuzda berilgani maqsadga muvofiq, chunki ularning ta'sir doirasi uzoqroq bo'lib, tuproqda nam yetarli bo'lganda oyiga 8-10 sm tuproqqa singib boradi. Azotli o'g'itlar o'sish davrida erta bahorda va tugunchalar yetilish davrida berilsa, daraxtlarning o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Anjir yetishtirish texnologiyasi bo'yicha 4-5 yoshli anjir bog'lariga azot 120 kg/ga, fosfor-90 kg/ga, kaliy-60 kg/ga sof holda berilib, bir vaqtning o'zida 10 tonna go'ng berilsa, to'liq hosilga kirgan bog'larga azot 180 kg/ga, fosfor 140 kg/ga, kaliy 90 kg/ga (sof holda) go'ng 20 tonna berilsa, sifatli mo'l hosil olish mumkin [1,2,3].

Ekishga tavsiya etilgan istiqbolli navlari O'zbekiston sariq anjiri - mahalliy nav. Respublikaning hamma tumanlariga moslashtirilgan. Daraxti kuchli o'suvchan, shoxlari tarvakaylagan, mevasi yirikligi 40-80 g bo'ladi, shakli yumaloq-yassi bo'lib, meva bandi qisqa, po'sti tuk sariq limon rangida. Meva tarkibida qand miqdori 14-18%, quritilganida 61% gacha ni tashkil qiladi va 0,12% kislota bo'ladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan. U butun anjirzorlarning 90% ni tashkil etadi. o'n yoshli bir tupdan 25-50 kg gacha hosil olinadi, 3-yildan hosilga kiradi, asosiy hosili iyul oxiri avgust boshida pisha boshlaydi. Meva tugunchalari daraxtida

qurib qolmaydi. Quritish uchun kam yaroqli hisoblanadi [1,2,3].

Bely Adriaticheskij navning kelib chiqishi O'rta Yer dengizi xududi mamlakatlari hisoblanadi. Mevasi o'rtacha yirik 35-60 g keladi, yumaloq-noksimon bo'lib, yashil sariqda, po'sti to'q sariq rangda. Hosildorligi yuqori bir tupdan 15-35 kg gacha, meva tugunchalari daraxtida ham yaxshi quriydi. Uzoq bo'lmagan masofalarga tashish mumkin. Mevasining tarkibida qand miqdori 24,5% gacha, quritilganida 75% gachani tashkil qiladi.

Kadota - eng yaxshi nav hisoblanadi. Mevasi o'rtacha yirik, noksimon, rangi sariq. Eti och jigarrang tusda, mazasi shirin. Mevasining tarkibida qand miqdori 23-24% gacha, quritilganida 70-73% gachani tashkil kiladi. Bir yilda ikki marta hosil olinadi, tupdan 22-38 kg gacha hosil olinadi.

Dalmatskiy - kelib chiqishi Italiya davlati bo'lib, respublikamiz sharoitiga moslashtirilgan. Mevasi noksimon shaklda, yirik vazni 50-90 gr gacha bo'ladi. Mevani rangi och-yashil, to'liq pishgan vaqtda yashil-sariq rangga kiradi, meva eti to'q-qirmizi rangda. Tarkibidagi qand miqdori yangi uzilgan mevasida 20-29%, quritilganida 50-60% ni tashkil etadi, quruq modda chiqishi 28-30%, bachki novdali qilib o'stirish samara bermaydi.

Qrim-9 - ushbu nav Qrimdan olib kelingan. O'rtacha o'sishchi, shoxlar har tomonga yoyilgan kalin aylanasimon tup. Bir yillik novdalari yo'g'on o'rtacha shoxlangan. Barglari o'rtacha kattalikda, besh bo'lakli, barg bandi yo'g'on, qisqa ochiq, kuchsiz tuklangan. Mevasi o'rtacha kattalikda, ya'ni 30 gr gacha bo'ladi. Chuzinchok aylana shaklda meva bandi qisqa. Mevasining pusti yupqa, zinchi, ko'kimtir-sariq tekis kuchsiz tuklangan. Uni uzoq joylarga jo'natib va saqlab bo'lmaydi. Pishgan mevasining tarkibida qand moddasi 25%, kokida esa 70%, kislota 0,2, pentin moddasi 0,15% buladi. Mevasining pishishi sentyabr oyning oxirlarida, oktyabrning o'rtalarigacha davom etadi. hosildorligi yuqori, ya'ni bir tupdan 20-30 kg gacha bo'lib, 5-6 yilda to'liq hosil beradi.

Qrim-29 - Qrimning Nikitin bog'ida yaratilgan bo'lib, respublikamiz ikdim sharoitiga yaxshi moslashgan nav xisoblanadi. Mevasi yumalak, o'rtacha 30-40 gr og'irlikda, rangi tekis yashil-sarg'ish, etining rangi to'q kizil. Pishgan mevasi tarkibida 22,5 kuritilganida 68-70 qand moddasi mavjud. hosildorligi tupidan 15-30 kg gacha, tashishga yaroqsiz, tupini bir tanali usulda o'stirish kulay.

Qrim-43 - Qrimdan keltirilgan shoxlari uncha tarqalmagan, qalin, yassi aylanma, novdalari ingichka, yaxshi rivojlangan, barglari uncha katta emas, 5 bo'lakli, barg bandi uzun, ingichka, sarg'ish ko'kimtir, kuchsiz tuklangan. Mevasining kattaligi o'rtacha, maydasi 17 dan 35 g gacha, noksimon shaklda bo'lib, yo'l-yo'l meva bandlarga tortilgan, eng asosiy meva bandi ingichka. Ko'zchalari uncha katta emas. Yuzasi sezilmaydigan, qirrali, silliq, kuchsiz ko'kimtir rang bilan qoplangan. Mevasining yumshoq qismi rangi ochiq sariq. Ta'mi shirin mazali, mevasining pishishi iyul oyi oxiridan to oktyabr oyigacha davom etadi. Mevasi tupida turadi, 25% kand moddasi (kokida 64%) 0,25% kislota mavjud. Bu navni iste'mol qilish va quritish mumkin. Bir tupdan 25-30 kg dan hosil olish mumkin. 5 yildan keyin to'liq hosilga kiradi. Barcha viloyatlarga ekish tavsiya qilingan.

O'zbekiston iqlim sharoitida anjirning Dalmatskiy, Bely Adreaticeskij, Uzbekskij jelty, Krimskiy-43, Krimskiy-9, Krimskiy-29, Kadota navlari ekish uchun tavsiya qilinadi. Agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida o'tkazilsa sifatli va yuqori hosil olish mumkin degan xulosaga kelamiz.

ADABIYOTLAR:

1. "Anjir yetishtirish" "Agrobank" ATB tomonidan 100 ta kitobdan iborat qo'llanmalar to'plami. Toshkent 2021.
2. Ostanakulov T.E. va boshqalar. "Mevachilik asoslari". Samarqand-2010.
3. Fayziyev K.T. "Anjir agrotexnikasi va uning istiqbolli navlari". Toshkent - 2005.

MAKKAJO'XORI O'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGRO TEXNOLOGIYASI VA ZARARKUNANDALARGA QARSHI BIOLOGIK KURASH SAMARADORLIGI

Fayzullayev Burxon,

Murodov Inomjon Quvondiq o'g'li,

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali,

Po'latov Otamurod Aslamovich,

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti.

Аннотация. В статье рассматриваются биоэкология кукурузного мотылька, борьба с его вредителями и биологический контроль. Бракон (*Habrobracon*) гебетор Сай. Достижение высокой эффективности с помощью энтомофагии.

Ключевые слова: кукурузная моль, биоэкология, вредность, метод борьбы, агробиоценоз, браконьерство

Abstract. The article discusses the bioecology of the corn borer, its pest management and biological control. Brakon (*Habrobracon*) gebetor Sai. Achieving high efficiency using entomophagy.

Kalit so'zlar: makkajo'xori parvonasi, bioekalogiyasi, zarar keltirishi, kurash usuli, agrobiotsenoz, brakon.

Key words: corn moth, bioecology, damage, control method, agrobiocenosis, poaching

Kirish. Makkajo'xori *Zea mays* L. - boshqodoshlar oilasiga mansub bo'lib, bir yillik o'simlik hisoblanadi. Makkajo'xorining vatani Markaziy va Janubiy Amerika mintaqasi hisoblanadi. Navlari va tuproq iqlim sharoitiga qarab o'sish davri 90-150 kundan iborat. Tuproq harorati 10°C ga yetganda 10-12 kunda unib chiqadi. 20-25°C da yaxshi rivojlanadi. Makkajo'xori o'simligi xalq xo'jaligida keng ko'lamda foydalaniladi. Yer yuzidagi ko'plab mamlakatlarda makkajo'xori donining 20 foizi oziq-ovqat sifatida ishlatiladi. Undan un, yorma, konserva tayyorlanadi. Sanoatda makkajo'xori donidan kraxmal, etil spirti, dekstrin, glyukoza, askarbin kislotasi va glyutamin kislotalari olinadi. Gulning ustuncha qismi meditsinada ishlatiladi. Makkajo'xori so'tasidan, poyasidan va bargidan qog'oz, linolium, viskoza materiallari olinadi. Mamlakatimizda makkajo'xori silos tayyorlanadigan ekin sifatida birinchi o'rinda turadi. Don tarkibida oqsil 9-12 foiz, yog' 4-8 foiz, uglevodlar 65-70 foiz shuningdek madaniy tuzlar va vitaminlar mavjud. Poyasi esa yem xashak sifatida ishlatiladi. Makkajo'xori o'simligi dunyoda eng ko'p ekiladigan donli o'simliklardan biri yer sharida 135 mln gektardan ortiq maydonlarda ekiladi. Mamlakatimizda ilg'or xo'jaliklarda yuz sentnerdan ko'p hosil olinadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida donli ekinlar guruhiga mansub bo'lgan makkajo'xori yetishtirish texnologiyasiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Makkajo'xori xalq xo'jaligida juda ko'p maqsadlarda ishlatiladi. Uning doni ko'pgina mamlakatlarda oziq sifatida foydalaniladi. Yevropa mamlakatlarida yetishtirilgan barcha makkajo'xori donining 45-50, Shimoliy va markaziy Amerikada 30-35, Janubiy Amerikada 50-55, Osiyoda 70-80, Afrikada 65-70, Avstraliyada 35-40 % oziq-ovqat maqsadlarida ishlatiladi. Portugaliya, Meksika, Kuba, Pokiston, Indoneziya kabi mamlakatlarda yetishtiriladigan makkajo'xori donining 90-95 % ovqatga solinadi (Yo'ldoshev X., 1984).

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Makkajo'xori zararkunandalari - makkajo'xorini zararlaydigan hasharotlar. 70 ga yaqin turi bor. Asosiylari: ko'sak qurti, karadrina, kuzgi tunlam, simqurt, leukan tunlami, makkajo'xori parvonasi, makkajo'xori biti, makkajo'xori sustkashi va boshqalar.

Makkajo'xori parvonasi ta'rifi. Ushbu zararkunanda keng

tarqalgan tur bo'lib, u Yaqin Sharq mamlakatlari, Hindiston, Yaqin Osiyo, Misr, o'rta va janubiy Yevropa, Shimoliy Amerika va boshqa mamlakatlarda uchraydi.

Makkajo'xori parvonasi erkak va urg'ochi kapalaklar bir-biridan tashqi ko'rinishi bo'yicha farq qiladi. Erkagi urg'ochisidan kichik 27-28 mm, urg'ovchisi 31-32 mm. Erkagining qanotlari umumiy qoramtir tusda. Old qanotlari sariq yoki och jigarrang, orqa qanotlarining o'rtasidan ko'ndalangiga yo'g'on oq chiziq o'tadi. Kapalaklar tinch o'tirganda qanotlari kapa sifat qorinchasini to'liq berkitadi. Tuxumi yassi va oval shaklda, kapalaklar ularni bir-biriga nisbatan cherepitsa kabi joylab, bargning ost qismiga 10-15 donadan to'p-to'p qilib qo'yadi. Tuxumlar kapalak ajratgan suyuqligi bilan qoplangan bo'lib, 2-3 mm li oqish mum tomchisini eslatadi. Voyaga yetgan qurtlar 25 mm ga boradi, rangi sarg'ish-kulrang tusda, yelka tomonida yo'g'on qoramtir chiziq o'tadi, har bir segmentida 4 tadan qalqonchasi bor, bosh, engak va oxirgi segment qalqonchalari qo'ng'ir tusda, soxta oyoqlarining uchi yumaloq bo'lib, doira shaklidagi ilmoqlari mavjud. G'umbagi och jigarrang, uzunligi 20 mm ga yetadi, tana uchida 4 ta ilmoqdor o'simtasi bor.

Makkajo'xori parvonasining voyaga yetgan qurtlari o'simlik qoldiqlarida dalada qishlaydi. Ularni makkajo'xori, tariq va boshqa yo'g'on poyali o'simliklarning yerga yaqin qismida ko'plab uchratish mumkin. Qishlashga ketishdan oldin qurtlar tashqari bilan aloqa teshigini berkitib tashlashadi. Qurtlar qishki havo haroratining -30°C dan ham pasayishiga bir oy chidaydi. Bahorda havo harorati 15-16°C dan oshganda qurtlar g'umbaklana boshlaydi. Bundan oldin bo'lg'usi kapalakning tashqariga uchib chiqishini osonlashtirish uchun qurtlar poya devorini kemirib dumaloq teshik yasaydi. Qurtlarni g'umbaklanish davrida havo namligining ahamiyati katta bo'ladi. Makkajo'xori parvonasi namliksevar tur bo'lganligi sababli, havo namligi yuqori, bahor faslida yog'ingarchilik mo'l bo'ladigan tumanlarda yoki sug'oriladigan paykallarda yaxshi rivojlanadi. Qurg'oqchilik bu zararkunandaning dushmani. Bunday sharoitda qurtlar ko'plab o'ladi. G'umbaklanish oldidan qurtlar yumshoq va yupqa pilla o'raydi. G'umbalik davri 10-25 kun davom etadi. Bunda yirik g'umbaklardan 80-120 mg odatda urg'ochi zot, maydasidan 60